

**DISTINCTIVE FEATURES OF SPIRITUAL EDUCATION IN THE UPDATED
UZBEKISTAN**

Annotation: In this article, the analysis of the role of education in the updated society and the importance of work in the rise of spirituality was expressed.

Key words: upbringing, education, spirituality, development.

E'zoza Axmadjonova

TDPU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi

2-bosqich talabasi

**YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY TARBIYANING O'ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI**

AnnotatsiyaP: Mazkur maqolada yangilanayotgan jamiyatdagi ta'lim tarbiyaning o'rni va ma'naviyat yuksalishidagi ishlar ahamiyati haqida tahlillar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ta'lim, ma'naviyat, rivojlanish.

Аннотация. В этой статье представлен анализ роли образования в обновляющемся обществе и важности работы по повышению духовности.

Ключевые слова: воспитание, образование, духовность, развитие

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan asosiy maqsad jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada yangi islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish edi. Shuni ham aytish kerakki, jahonda hamma mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tamoyillari, barcha uchun tavsiya etish lozim bo'lgan tayyor andozalari hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Shu bilan birga rivojlanishning madaniy, ma'rifiy, tarixiy jihatdan asrlar mobaynida shakllangan an'analari mavjud bo'lgan O'zbekistondagi qadimiy makonda o'ziga xos yo'l tanlash uchun ancha-muncha izlanish lozim edi. Shuning uchun ham "Mustaqil O'zbekiston tug'ilgan kuniyoq oyoqqa turishga, o'zi yurishga majbur edi".

Yana shuni ta'kidlash darkorki, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan paytda mamlakat ichkarisida bo'lgani kabi uning tashqarisida ham unga ishonmaydigan, shubha bilan qaraydiganlar bor edi. I.A.Karimov mamlakatning dastlabki yillardagi rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiy-yo'lini isloh qilish dasturining o'zagi sifatida quyidagi beshta asosiy qoidani o'rta tashladi:

Birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin yemas. Bu ning ma'nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish kerak.

Ikkinchidan, o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi shart.

Uchinchidan, qonun, qoidalarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga rioya etishi lozim.

To'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish. Bozor munosabatlarni joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash

yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

O'zbekiston fuqarolari uchun oliy ne'mat bo'lgan mustaqillik to'g'risida so'z yuritir ekanmiz, uni jamiyat rivojining asosi, bugungi va uzoq istiqboldagi taraqqiyotimiz sharti, barcha islohotlarimizning mezonini va nihoyat, barcha amal qiladigan bosh tamoyili deb ta'riflanadi. Shunday ekan, u jamiyat a'zolari oldiga muttasil yangi-yangi vazifalarni qo'yadi va uning bajarilishini talab qiladi. Zero, taraqqiyotning har bir bosqichi, turli-tuman muammolar va ularni bartaraf etish yo'lidagi tadbirlardan iboratdir. Xalqaro hamjamiyat kata va kichik millatlar, davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mustaqillikning ilk yillarida vujudga kelgan muammolar yechimida sustkashlikka yo'l qo'yish og'ir ijtimoiy larzalarga olib kelishi mumkin. Mustaqillik bir tomondan milliy taraqqiyot yo'lini erkin tanlashda ulkan mas'uliyat yuklasa, ikkinchi tomondan eskilikka barham berish va yangi jamiyatga asos yaratish uchun beqiyos imkoniyat yaratadi. Shu nuqtai nazardan, mustaqillikni demokratiya uchun eng zarur shart-sharoit deb hisoblasak bo'ladi.

Kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur o'rganish hamda umumlashtirish asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni loyihasi ishlab chiqilib, u bilan:

2017 -2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi; Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg'in muhokamalar olib borildi. Loyihalar muhokama uchun turli axborot maydonlariga joylashtirildi, ularning natijasida ko'plab taklif va mulohazalar kelib tushdi. Fuqarolar siyosiy-huquqiy borada yuksak faollik ko'rsatib, olib borilayotgan islohotlarga alohida qiziqish va daxldorlikni namoyon qildilar. Harakatlar strategiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik, ishbilarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog'ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, ma'daniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi. Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Mazkur yo'nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat.

Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish nazarda tutilmoqda, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi tasdiqlanadi. 2017 yil 7 fevralda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan "Harakatlar strategiyasi", o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, dunyoda tub o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi zamonda davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq, iqtisodiy, ijtimoiy sohalar va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha beshta ustuvor yo'nalishda aniq muddatga mo'ljallangan tom ma'nodagi milliy strategiya hisoblanadi. U besh bosqichda, kelgusi besh yilda yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil

bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi. Modernizatsiya jarayonida o'zgarishlar inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida ro'y beradi. O'zgarishlar natijasida yangi tushunchalar, tamoyillar, yondashuvlar shakllanadi. Ular esa milliy g'oya qamrovini yanada kengaytiradi va yoshlarning ongi va qalbiga singdirishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Milliy g'oya murakkab tizim sifatida yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllanishi, yuksalishi, vatanimizning barcha millatlarini o'z atrofida birlashtirish kabi muammolarni qamrab oladi.

Mamlakatimizni rivojlanish yo'li "O'zbek modeli"da o'z ifodasini topgan. Milliy g'oyani ham rivojlanish modeli ham maqsadi xalqimizning kelajagiga qaratilgan va rivojlanishning yuqori pog'onalariga intilish, ma'naviyatimizni yuksaltirishdir. Hozirgi kunda shu narsa aytish lozimki, jahon miqyosida globallashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi har bir davlat, millat va etnik guruh vakillariga, jumladan, yoshlar ongiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bunda axborot oqimlarining tezlashuvi, ularni olish manbalarining turli-tumanligi turli g'oyalar, mafkuraviy va madaniy oqimlarning keng tarqalishiga sharoit yaratib bermoqda. Buning ustiga, yuqori malakali ishchi kuchini takror hosil qilishning eng muhim va istiqbolli asosi bo'lgan oliy o'quv yurtlari talabalarining turli xil axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatlariga egaligi ularni bunday oqimlarning salbiy ta'sirlaridan himoya qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu sababdan ham har bir oliy ta'lim muassasasi talabalarining bilim, ko'nikma va kasbiy mahorati bilan birga ularning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lib, bunday dolzarb muammoni ijobiy darajada hal qilish kasbiy kompetentlikni tarkib toptirish doirasida hal etilishi lozim.

Talabalarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni, mafkuraviy immunitetni va daxldorlikni shakllantirish to'rtta ustuni – faol fuqarolik pozitsiyasi, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy pedagogika, hamkorlik pedagogikasiga to'htalib o'tishimiz ularda vatan taqdiriga befarq bo'lmaslik va islohotlarga daxldorlik ruhida tarbiyalash vazifalarini belgilab beradi. Jumladan, mamlakatimizda ham O'zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor darajasiga ko'tarilgan. Zotan, tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisidir. Bir so'z bilan aytganda asrlar davomida xalqimiz orzu qilib kelgan, ajdodlarimiz o'z asarlarida umid bilan tasvirlagan "Komil inson" obrazini shakllantirish uchun tarbiya ham asosiy omil, ham vosita hisoblanadi. Ayni paytda tarbiya yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash vositasi bo'lib, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan qadimiy va abadiy qadriyatdir.

Tarbiya yoshlarda juda ko'p ezgu fazilatlarni, jumladan vatanparvarlikni tarbiyalashdagi eng muhim omildir.

Bu O'zbekistonda demokratik jamiyatni shakllantirish jarayonida erishilgan ijobiy natijalar fuqarolar, xususan, o'sib kelayotgan yosh avlodga berilayotgan ma'naviy tarbiyaning hayotiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligining yorqin ifodasidir.

Bugungi kunda respublikamizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurish bilan bog'liq ustuvor vazifalar belgilab olindi. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab demokratik jamiyat barpo etish, ma'naviy tiklanish va ma'naviy yuksalishga erishish uchun tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinayotganligining asl sababi ham shunda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи.//Халқ сўзи, 2017 йил, 30 июнь.
2. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. 13-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2005 йил.-177-б.
3. Мурод Хўжа. Биз Ватанни қанчалик севамир. – Тошкент: Ўзбегим нашри,1992, №1.- 28-б.
4. Sobirova M., Xo‘jayev M. Ma’naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari. Darslik. – Toshkent: “BOOKMANY PRINT” nashriyoti, 2024. – 304 b.